



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "29" aprel

QAROR 4 -son

Toshkent sh.

Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, rasmiy statistika sohasida ilg'or xorijiy statistika amaliyotini inobatga olgan holda uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Uy-joy fondini obodonlashtirish statistika ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 29- fevraldagi "Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"ni tasdiqlash haqidagi 20- son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev